

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....	10
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	17
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	21
<b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....	26
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....	34
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	40
<b>Akramova Feruza</b>	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52
<b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....	59
<b>Nazarov Elbek</b>	
PHYSALIS ALKEKENGI O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....	66
<b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....	70
<b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI .....	77
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	82
<b>Normamatov A. A.</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....	87
<b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	94
<b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	101
<b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
<b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....	113
<b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	119
<b>Normamatov A. A.</b>	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
<b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	128
<b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
<b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
<b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	145
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
<b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....	157
<b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH .....	164
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi</b>	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
<b>Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim</b>	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
<b>Ganiyev Botir Baxtiyorovich</b>	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	178
<b>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</b>	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	184
<b>Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon</b>	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI .....	190
<b>Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar</b>	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ .....	196
<b>Нуралиева Мукаддас Мамуровна</b>	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI .....	201
<b>Xakimov Rashid</b>	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI .....	206
<b>Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH .....	212
<b>Achilova Firuza, Zohidov Jamshid</b>	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	217
<b>Sattarov R.A.</b>	



# NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Sattarov R.A.**

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi  
Email: academics.uzb@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyati misolida hududlararo iqtisodiy aloqalarning tovar va xizmatlar aylanmasi hamda transport infratuzilmasi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda hudud iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, tarmoqlar tarkibi va savdo-xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi baholangan. Tahlil natijalari qishloq xo'jaligi salohiyati va ichki bozor faolligi hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlari va transport-logistika infratuzilmasidagi mavjud cheklovlar iqtisodiy aloqalar samaradorligini pasaytirayotgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida transport-logistika tizimini takomillashtirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** hududlararo iqtisodiy hamkorlik, tovar va xizmatlar aylanmasi, transport infratuzilmasi, logistika, hududiy rivojlanish, iqtisodiy integratsiya, Namangan viloyati.

**Abstract:** This study examines the role of commodity and service turnover and transport infrastructure in strengthening interregional economic cooperation, using the Namangan region as a case study. The research evaluates regional macroeconomic indicators, sectoral structure, trade performance and service sector dynamics to identify the key factors influencing interregional economic linkages. The findings indicate that the region's agricultural potential, stable domestic market and sustained economic growth create favorable conditions for expanding interregional cooperation. However, the limited industrial base and underdeveloped transport and logistics infrastructure continue to constrain production diversification and reduce the efficiency of regional economic interactions. Based on the results, the study proposes policy measures aimed at improving transport and logistics systems, strengthening industrial cooperation and enhancing sustainable interregional economic integration.

**Keywords:** Interregional economic cooperation, Commodity and service turnover, Transport infrastructure, Logistics, Regional development, Economic integration and Namangan region.

**Аннотация:** В статье исследуются роль товарооборота, сферы услуг и транспортной инфраструктуры в развитии межрегионального экономического сотрудничества на примере Наманганской области. На основе анализа основных макроэкономических показателей, отраслевой структуры экономики, динамики торговли и сферы услуг определены ключевые факторы, влияющие на эффективность межрегиональных экономических связей. Результаты исследования показывают, что высокий потенциал аграрного сектора, устойчивый внутренний рынок и положительная динамика экономического роста создают благоприятные условия для расширения межрегионального взаимодействия. Вместе с тем недостаточный уровень развития промышленности, транспортной и логистической инфраструктуры ограничивает диверсификацию производства и снижает эффективность экономических связей между регионами. По результатам исследования предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию транспортно-логистической системы, развитию промышленной кооперации и повышению эффективности межрегионального экономического сотрудничества.

**Ключевые слова:** межрегиональное экономическое сотрудничество, товарооборот и сфера услуг, транспортная инфраструктура, логистика, региональное развитие, экономическая интеграция и Наманганская область.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida hududlararo iqtisodiy hamkorlik mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozorning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy

nomutanosibliklarni kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Hududlar o'rtasida tovar va xizmatlar aylanmasining kengayishi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonlarda transport va logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi tovarlar harakatining tezkorligi, tashish xarajatlari va iqtisodiy aloqalar samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, ichki iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda hududlararo kooperatsiyani kengaytirish davlatning ustuvor iqtisodiy siyosati yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy salohiyati, tarmoqlar tarkibi va geografik joylashuvi bilan ajralib turadigan Namangan viloyatida tovar va xizmatlar aylanmasi hamda transport infratuzilmasining hududlararo iqtisodiy aloqalarga ta'sirini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi Namangan viloyati misolida tovar va xizmatlar aylanmasi, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi hamda transport infratuzilmasining hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlararo iqtisodiy hamkorlik va hududiy iqtisodiy rivojlanish masalalari iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning ishlab chiqarish samaradorligi, resurslar taqsimoti, transport-logistika tizimi va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga ta'siri keng yoritilgan. Hududlararo iqtisodiy aloqalarning nazariy asoslari V. Leontyevning tarmoqlararo balans (Input–Output) modelida o'z aksini topgan bo'lib, unda iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va mahsulot oqimlarini baholash usullari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv hududlar o'rtasida tovar va xizmatlar harakatini tahlil qilish hamda iqtisodiy kooperatsiyaning samaradorligini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi (Leontief, 1986). M. Porter hududlarning raqobat ustunligi ishlab chiqarish omillari bilan bir qatorda infratuzilma, innovatsiyalar, institutsional muhit va klasterlar rivojlanganligiga ham bog'liq ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, hududlarda raqobatbardosh iqtisodiy muhitning shakllanishi tarmoqlararo hamkorlikni kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi (Porter, 1990).

P. Krugman va M. Fujita tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyasida iqtisodiy faoliyatning hududiy konsentratsiyasi transport xarajatlari, bozor hajmi va aglomeratsiya samarasi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv transport infratuzilmasining rivojlanganligi hududlararo iqtisodiy integratsiya va tovar aylanmasini kengaytirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi (Krugman, 1991; Fujita, Krugman & Venables, 1999). Mintaqaviy iqtisodiyot sohasida R. Kapello hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi resurslardan samarali foydalanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va institutsional hamkorlikni kuchaytirish bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, J.P. Rodrig transport va logistika tizimlarining iqtisodiy faollikka ta'sirini tahlil qilib, zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish hududlararo tovar harakati samaradorligini oshirishning asosiy sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan (Capello, 2016; Rodrigue, 2024).

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining so'nggi hisobotlarida ham transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy integratsiyani kuchaytirish va ichki bozorlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida baholangan (World Bank, 2023, 2024; OECD, 2024; Asian Development Bank, 2024). Shu bilan birga, O'zbekistonda hududlarni mutanosib rivojlantirish, ichki iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va hududlararo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Biroq Namangan viloyati misolida tovar va xizmatlar aylanmasi, transport infratuzilmasi hamda hududlararo iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar hozircha yetarli emas. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, hudud iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi, savdo va xizmatlar sohasi hamda transport-logistika infratuzilmasining hududlararo iqtisodiy hamkorlikka ta'sirini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Namangan viloyatida hududlararo iqtisodiy aloqalarning tovar va xizmatlar aylanmasi hamda transport infratuzilmasi bilan o'zaro bog'liqligi kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Namangan viloyatining 2024–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi, yalpi hududiy mahsulot,



savdo aylanmasi, xizmatlar sohasi, investitsiyalar va transport infratuzilmasi ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq holda baholandi. Olingan natijalar asosida hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati misolida mazkur jarayonlarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Viloyatda qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining nisbatan yuqori ulushga egaligi, aholi sonining kattaligi hamda ichki iste'mol bozorining kengligi uni boshqa hududlar bilan faol iqtisodiy aloqalarga kirishuvchi hudud sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining nisbatan cheklanganligi hududlararo tovar aylanmasini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Mazkur holat Namangan viloyatida tovar va xizmatlar aylanmasi hamda transport infratuzilmasining hududlararo iqtisodiy aloqalarga ta'sirini chuqur o'rganish zaruratini belgilaydi. Yuqorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib, Namangan viloyati iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi (1-jadval).

### 1-jadval

Namangan viloyati iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari va tarmoqlar tarkibining dinamikasi (2024-2025-yy.)<sup>1</sup>

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2024-yil	2025-yil
1	Yalpi hududiy mahsulot	mlrd so'm	58 173,70	68 915,70
2	Aholi jon boshiga YAHM	ming so'm	19 187,80	22 238,70
3	Sanoat mahsuloti ulushi	%	3,6	3,6
4	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi	%	7,7	7,7
5	Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi	%	10,7	10,7
6	Chakana savdo tovar aylanmasi	%	6,1	6,1
7	Bozor xizmatlari ulushi	%	5,3	5,3

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati iqtisodiyotining so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, **2024–2025-yillar** oralig'ida yalpi hududiy mahsulot hajmi 58,2 trln so'mdan 68,9 trln so'mgacha o'sgani viloyatda ishlab chiqarish faoliyatining kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmining ham o'sishi iqtisodiy o'sish aholi daromadlari va turmush darajasiga muayyan ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Tarmoqlar tarkibi tahlili viloyat iqtisodiyotida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tarmoq ulushining nisbatan yuqoriligi Namangan viloyatining agrar ixtisoslashuvini belgilab beradi va uning boshqa hududlar bilan tovar almashinuvida muhim o'rin tutishiga zamin yaratadi. Ayni vaqtda, sanoat mahsuloti ulushining nisbatan past darajada saqlanib qolayotgani viloyatda qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushining mavjud darajada saqlanishi iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun ma'lum imkoniyatlar yaratilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, chakana savdo tovar aylanmasi va bozor xizmatlari ulushining barqarorligi viloyatda ichki iste'mol bozorining shakllanganini va xizmatlar sohasining izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu holat aholi sonining ko'pligi va iste'mol talabining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, keltirilgan ko'rsatkichlar Namangan viloyati iqtisodiyotida ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlari o'zaro bog'liq holda shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat esa viloyatning boshqa hududlar bilan tovar va xizmatlar aylanmasida faol ishtirok etishiga asos yaratadi hamda transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bu jarayonning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini taqozo etadi. Namangan viloyati iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va umumiy rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda, hududda tovar va xizmatlar aylanmasining amaldagi holatini baholash uchun savdo va xizmatlar ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi (2-jadval).

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**2-jadval**Namangan viloyatida savdo va xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi (2024-2025-yy.)<sup>2</sup>

No	Ko'rsatkichlar (respublikadagi ulushi)	O'lchov birligi	2024-yil	2025-yil
1	Chakana savdo tovar aylanmasi	%	6,1	6,1
2	Bozor xizmatlari hajmi	%	5,3	5,3
3	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi	%	7,7	7,7
4	Sanoat mahsuloti ulushi	%	3,6	3,6

Jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida savdo va xizmatlar sohasining barqaror shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, chakana savdo tovar aylanmasining respublikadagi ulushi 2024–2025-yillarda 6,1 foiz darajasida saqlanib qolgani viloyatda ichki iste'mol bozorining yetarlicha rivojlanganligini anglatadi. Bu holat, avvalo, aholi sonining kattaligi va iste'mol talabining barqarorligi bilan izohlanadi. Bozor xizmatlari ulushining 5,3 foiz darajasida saqlanishi xizmatlar sohasida ham izchil rivojlanish jarayonlari kuzatilayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sektorining barqarorligi hudud iqtisodiyotida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi ortib borayotgani va ushbu soha iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining nisbatan yuqori darajada (7,7 foiz) ekanligi viloyatda tovar resurslarining asosiy qismi aynan agrar sektor hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Bu esa Namangan viloyatining boshqa hududlar bilan oziq-ovqat va xomashyo ta'minotida muhim o'rin tutishini belgilaydi. Ayni vaqtda, sanoat mahsuloti ulushining 3,6 foiz darajasida bo'lishi qayta ishlash tarmoqlarini yanada rivojlantirish va ayrim mahsulot turlari bo'yicha hududlararo hamkorlikni kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ulgurji savdo bo'yicha mavjud ma'lumotlar ushbu sohada kelgusida yanada chuqurroq tahlillarni amalga oshirish uchun qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, savdo va xizmatlar ko'rsatkichlari Namangan viloyatida ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Mazkur holat hududda tovar va xizmatlar aylanmasining faol shakllanayotganini ko'rsatib, uning boshqa hududlar bilan iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Namangan viloyatida tovar va xizmatlar aylanmasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli ravishda umumlashtirib baholash zarur hisoblanadi (3-jadval).

**3-jadval**Namangan viloyatida hududlararo iqtisodiy aloqalarga ta'sir etuvchi asosiy omillarning kompleks tahlili<sup>3</sup>

No	Yo'nalish	Asosiy ko'rsatkich	Holati	Iqtisodiy ta'siri
1	Iqtisodiy baza	YAHM o'sishi	O'sishda davom etmoqda	Ishlab chiqarish hajmi ortib, tovar aylanmasi kengaymoqda
2	Tarmoqlar tarkibi	Qishloq xo'jaligi ulushi	Yuqori	Ekspart va hududlararo ta'minotni ta'minlaydi
3	Sanoat	Sanoat ulushi	Yetarli emas	Tashqi hududlarga bog'liqlikni oshiradi
4	Savdo	Chakana savdo	Rivojlangan	Iste'mol bozorini shakllantiradi
5	Xizmatlar	Xizmatlar sohasi	O'sishda davom etmoqda	Iqtisodiy faollikni oshiradi
6	Transport	Avtomobil transporti	O'sishda davom etmoqda	Tovar harakatini ta'minlaydi
7	Logistika	Infratuzilma	Yetarli emas	Tashish xarajatlarini oshiradi

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning umumiy tahlili Namangan viloyatida hududlararo iqtisodiy aloqalarning shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq omillar ta'sirida kechayotganini ko'rsatadi. Avvalo, viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ulushining 7,7 foizni tashkil etishi mazkur hududda tovar resurslarining asosiy qismi agrar sektor hissasiga to'g'ri kelishini anglatadi. Bu holat Namangan viloyatini boshqa hududlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyo yetkazib beruvchi muhim manba sifatida namoyon etadi.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami - 2026-yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

3 Manba: Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot tahlillari asosida tuzildi.



Shu bilan birga, sanoat mahsuloti ulushining 3,6 foiz darajasida saqlanib qolayotgani qayta ishlash tarmoqlarini yanada rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatib, ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha hududlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Savdo va xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlar ham iqtisodiy aloqalarning faolligini tasdiqlaydi. Jumladan, chakana savdo tovar aylanmasining respublikadagi ulushi 6,1 foizni tashkil etishi viloyatda ichki iste'mol bozorining kengligi va barqaror talab mavjudligini ko'rsatadi. Bozor xizmatlari ulushining 5,3 foiz darajasida bo'lishi esa xizmatlar sektori iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida shakllanganini anglatadi. Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirib, tovar va xizmatlar aylanmasining izchil rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, transport infratuzilmasi mazkur jarayonlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Viloyatda tovar harakatining asosiy qismi avtomobil transporti orqali amalga oshirilishi hududlararo aloqalarning tezkorligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tashish xarajatlarini optimallashtirish mavjud iqtisodiy salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida hududlararo iqtisodiy aloqalarning samaradorligi tovar va xizmatlar aylanmasi, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi hamda transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqladi. Tahlillar viloyatning agrar salohiyati, ichki iste'mol bozorining barqarorligi va yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari hududlararo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish hamda transport-logistika infratuzilmasini yanada takomillashtirish hududlararo iqtisodiy aloqalar samaradorligini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shundan kelib chiqib, birinchi navbatda, hududlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish hamda yuk tashish xizmatlarining samaradorligini oshirish orqali tovar va xizmatlar harakatini tezlashtirish zarur. Shuningdek, hududlararo iqtisodiy aloqalarni baholash va prognoz qilishda zamonaviy iqtisodiy-matematik modellardan keng foydalanish boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur takliflarni amalga oshirish hududlar o'rtasida resurslar taqsimotini yanada samarali tashkil etish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda mamlakatda barqaror va muvozanatli hududiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2025 йил статистик тўплам. –Тошкент, 2025.
2. Leontief W. Input-Output Economics. 2nd ed. New York: Oxford University Press, 1986. 436 p.
3. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 855 p.
4. Krugman P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. 156 p.
5. Fujita M., Krugman P., Venables A. J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1999. 367 p.
6. Capello R. Regional Economics. 2nd ed. London: Routledge, 2016. 394 p.
7. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. 5th ed. New York: Routledge, 2024.
8. World Bank. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy. Washington, DC: World Bank, 2023.
9. World Bank. World Development Report 2024: The Middle-Income Trap. Washington, DC: World Bank, 2024.
10. OECD. Regions and Cities at a Glance 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
11. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report 2024. Manila: Asian Development Bank, 2024.
12. World Economic Forum. The Global Competitiveness Report. Geneva: World Economic Forum, 2020.
13. European Commission. Territorial Agenda 2030: A Future for All Places. Brussels: European Commission, 2020.
14. Isard W. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science. Cambridge, MA: MIT Press, 1960. 784 p.
15. OECD. OECD Regions and Cities at a Glance. Paris: OECD Publishing, 2022.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)